

O‘zbekiston Respublikasi
Sog‘liqni saqlash vazirining
2025 yil "23" _iyundagi
180-sonli buyrug‘iga
Ilova

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN ONKOLOGIYA VA
RADIOLOGIYA ILMIY-AMALIY TIBBIYOT MARKAZI**

**"ME'DA SARATONI" NOZOLOGIYASI BO'YICHA
MILLIY KLINIK PROTOKOLLAR**

TOSHKENT – 2025

"TASDIQLAYMAN"
Respublika ixtisoslashtirilgan
Onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy
tibbiyot markazi direktori
M. N. Tillyashayxov



_____ 2025 yil

"ME'DA SARATONI" NOZOLOGIYASI BO'YICHA MILLIY KLINIK PROTOKOLLAR

TOSHKENT – 2025

Mundarija

ME'DA SARATONINI TASHXISLASH VA DAVOLASH BO'YICHA MILLIY KLINIK PROTOKOLLAR	5
ME'DA SARATONI UCHUN TIBBIY ARALASHUVLAR BO'YICHA MILLIY KLINIK PROTOKOLLAR	53
ME'DA SARATONINING TIBBIY PROFILAKTIKASI VA REABILITATSIYASI BO'YICHA MILLIY KLINIK PROTOKOLLAR	72
ME'DA SARATONI UCHUN PALLIATIV YORDAM BO'YICHA MILLIY KLINIK PROTOKOLLAR	89

**"ME'DA SARATONI" NOZOLOGIYASI
BO'YICHA DIAGNOSTIKA VA DAVOLASH
MILLIY KLINIK PROTOKOLLAR**

TOSHKENT – 2025

1. Kirish qismi

- Qisqacha annotatsiya. Me'da saratoni bo'yicha ushbu milliy klinik protokol dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillariga asoslangan zamonaviy ilmiy ma'lumotlarga muvofiq me'da saratonini nazorat qilish va oldini olishga qaratilgan o'z vaqtida va sifatli diagnostika, terapevtik taktika, palliativ yordamni ta'minlash uchun yagona konsepsiyani shakllantirish maqsadida ishlab chiqilgan.

Me'da saratoni nozologiyasi bo'yicha ushbu milliy klinik protokol O'zbekiston Respublikasi tuman, viloyat va respublika sog'liqni saqlash muassasalarining ambulator va statsionar sharoitida tibbiy yordam ko'rsatish uchun mo'ljallangan.

- KXT -10 kod (lar) i:

Kod	Nomlanishi
C16	– Me'daning havfli o'smasi
C16.0	– Me'daning kardial qismining havfli o'smasi
C16.1	– Me'da tubining havfli o'smasi
C16.2	– Me'da tanasining havfli o'smasi
C16.3	– Me'da antral qismining havfli o'smasi
C16.4	– Me'daning pilorik qismining havfli o'smasi
C16.8	– Yuqorida aytib o'tilgan lokalizatsiyalardan bir yoki bir nechtasidan tashqariga chiqadigan me'daning havfli o'smasi
C16.9	– Me'daning havfli o'smasi, aniqlashtirilmagan
Yuklab olish (XKT-10 dan havola): https://mkb-10.com/index.php?pid=1093	

- KXT -11 kod (lar) i:

Kod	Nomlanishi
2B72	– Me'daning xavfli hosilasi
2B72.0	– Me'da adenokartsinomasi
2B72.1	– Me'daning xavfli neyroendokrin hosilasi
2A85.1	– Selliksa bog'liq limfoma (mukoassoassotsiirlangan limfoma)
2B58.2	– Me'da leyomiosarkomasi
2B5B.0	– Me'daning gastrointestinal stromal o'smasi
2B72.Y	– Me'daning boshqa aniqlangan xavfli hosilalari
2B72.Z	– Aniqlanmagan me'daning xavfli hosilalari

- Bayonnomani ishlab chiqish va qayta ko‘rib chiqish sanasi:

2025/2028 yil.

- Milliy klinik protokol va standartlarni ishlab chiqish uchun mas’ul bo‘lgan tashkilot: Respublika ixtisoslashtirilgan Onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.

- MILLIY KLINIK PROTOKOL VA STANDARTLARNI ISHLAB CHIQISHDA XISSA QO‘SHGANLAR:

- Multidissiplinar ishchi guruh a’zolari:

1. Tillyashayxov Mirzagaleb Nigmatovich – t.f.d., professor, RIOvaRIATM direktori;
2. Yusupbekov Abrorbek Axmedjanovich – t.f.d., professor, RIOvaRIATM direktorining ilmiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari;
3. Jurayev Mirjalol Dexkanovich – t.f.d., professor, RIOvaRIATM abdominal bo‘limi rahbari;
4. Ibragimov Shavkat Narziqulovich – t.f.d., RIOvaRIATM radiologiya bo‘limi ilmiy rahbari;
5. Nishanov Daniyar Anarbayevich – t.f.d., RIOvaRIATM direktorining davolash ishlari bo‘yicha o‘rinbosari;
6. Kamishov Sergey Viktorovich – t.f.d., RIOvaRIATM kimyo terapiya bo‘limi ilmiy rahbari;
7. Raximov Nodir Maxamatovich – t.f.d., Samarqand shahar hududlar aro Xospisi direktori;
8. Ismailova Munajat Xayotovna – k.m.n., Toshkent Tibbiyot akademiyasi onkologiya kafedrasida mudiri.
9. Xasanov Akbar Ibragimovich – t.f.d., RIOvaRIATM bosh bo‘yin o‘smalari bo‘limi ilmiy rahbari;
10. Abdukarimov Xurshid Ganjiyevich – t.f.d. RIOvaRIATM tayanch-harakat a’zolari o‘smalari bo‘limi ilmiy rahbari;
11. Axmedov Odiljon Muxamedjanovich – t.f.n., RIOvaRITM endovizual jarrohlik bo‘limi mudiri;

- Multidissiplinar mualliflar ro‘yxati, qo‘shimcha hammualliflar jamoasi:

1. Djurayev Mirjalol Dexkanovich – t.f.d., professor, Respublika ixtisoslashtirilgan Onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi abdominal bo‘limi ilmiy rahbari;
2. Xudoyorov Sanjar Sarvarovich – t.f.d., Respublika ixtisoslashtirilgan Onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi abdominal bo‘limi mudiri;

- Taqrizchilar:

Respublikadan:

Ligay R.B. – t.f.d., akademik V.V.Voxidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktorining davolash ishlari bo‘yicha o‘rinbosari;

Horiждан:

Denish Pendxarkar – professor, Hindiston onkologlari Assotsiatsiyasi prezidenti, Sarvadoya instituti direktori, Faridobod, Hindiston;

- **Multidissiplinar ishchi guruh yig‘ilishida MILLIY KLINIK PROTOKOLni loyihasini muhokamasi bayonnomasidan ko‘chirmaning raqami va sanasi:** ishchi guruhning 5-sonli yig‘ilishi 2025 yil 22 mayda bo‘lib o‘tgan.

- **Onkologiya tibbiyot yo‘nalishlari kengashlari yig‘ilishida AGREE usulida muhokamadan o‘tkazilganligi xulosasi va yig‘ilish bayonnomasidan ko‘chirma:** Ilmiy Kengashning 5-sonli yig‘ilishi 2025 yil 25 mayda bo‘lib o‘tgan.

Milliy klinik protokol va standartlarni texnik baholash bo‘yicha ekspert xulosasi va taxrirlash:

Respublikadan:

Islamov Xurshid Jamshidovich – t.f.n., Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy amaliy tibbiyot markazi koloproktologiya bo‘limi ilmiy rahbari;

Horiждан:

Kim Sergey – Seul Milliy universitetining Bundang gospitali tashqi aloqalar departamenti professori.

Milliy klinik protokol va standartlarni Sog‘liqni saqlash vazirligining Ekspert guruhi mutaxassislari tomonidan o‘tkazilgan baholash bo‘yicha ekspert xulosasi:

Mazkur klinik protokol va standartlar O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazir o‘rinbosari Basitxanova E.E, Tibbiy sug‘urta boshqarmasi boshlig‘i Sh. Almardanov, klinik protokollar va standartlarni ishlab chiqish va joriy etish bo‘limi boshlig‘i Sh.R. Nurimova boshchiligida, Klinik protokollar va standartlarni ishlab chiqish va joriy etish

bo‘limi bosh mutaxassisi G.Djumayeva, yetakchi mutaxassisi N.Raximova tomonidan tashkiliy va uslubiy ko‘magi asosida ishlab chiqilgan.

Sog‘liqni saqlash vazirligi qoshidagi Muvofiqlashtirilgan Kengash yig‘ilish bayonnomasidan ko‘chirma (sana, №raqam).

QISQARTMALAR RO‘YXATI:

YUQT	– Yurak-qon tomir tizimi
FEGDS	– fibroezofagogastroduodenoskopiya
EGS	– ezofagogastroskopiya
EKG	– elektrokardiografiya
GIST	– gastrointestinal stromal o‘sma
XELOX	– kimyo terapiya sxemasi: kseloda + oksaliplatin
TNM	– Tumor Nodus Metastasis – havfli o‘sma kasalliklari bosqichlarining xalqaro tasnifi
JSST	– Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti
ECOG	(ingl. Eastern Cooperative Oncology Group) – 5 balli tizim bo‘yicha davolanishdan oldin, davolanish paytida va undan keyin onkologik bemorning umumiy holatini baholash shkalasi (onkologik kasalliklarni o‘rganish uchun Sharqiy Qo‘shma guruh tomonidan tavsiya etilgan).
RW	– Vasserman reaksiyasi
TMB	– (ingl. Tumor Mutation Burden) O‘sma mutatsiyasining yuklamasi
ALT	– Alaninaminotransferaza
AST	– Aspartataminotransferaza
BSLU	– Qo‘riqchi limfa tugunlari biopsiyasi
PSYA	– Progressiyasiz yashovchanlik
OIV	– Odam immuntanqisligi virusi
v/i	– Vena ichiga
m/o	– Mushak orasiga
MYUCH	– Me‘yorning yuqori chegarasi
GO‘T	– Gormon – o‘rinbosar terapiya

Gr	– Grey
GRG	– Gonadotropin-rilizing gormon
GT	– Gormonoterapiya
GEB	– Gemato-ensefalik barer
HO‘	– Havfli o‘sma
IGX	– Immunogistoximik (tekshirish)
KSF	– Koloniyestimullovchi faktorlar (omillar)
KT	– Kompyuter tomografiya
LD	– Limfodisseksiya
LT	– Nur terapiya
DJM	– Davolovchi jismoniy mashq
HB	– Halqaro birlik
MRT	– Magnit – rezonans tomografiya
Mts	– Metastaz
IH	– Istalmagan hodisalar
UYA	– Umumiy yashovchanlik
QBA	– Qorin bo‘shlig‘i a‘zolari
KQA	– Ko‘krak qafasi a‘zolari
KCHA	– Kichik chanoq a‘zolari
t/o	– Teri ostiga
BTSYO	– Birlamchi tibbiy sanitar yordam
PXT	– Polikimyoterapiya
PZR	– Polimeraz zanjir reaksiyasi
PET	– Pozitron-emission tomografiya
BMO‘D	– Bir martalik o‘choqli doza
PR	– Progesteron retseptorlari
ER	– Estrogen retseptorlari
QLT	– Qo‘riqchi limfa tuguni (tugunlari)
SO‘D	– Summar o‘choqli doza
UTDG	– Ultratovush dopplerografiya

- UTT – Ultratovush tekshirish
- FSG – Follikulstimullovchi gormon
- XT – Kimyo terapiya
- IF – Ishqoriy fosfataza
- ET – Endokrin terapiya
- ExoKG – Exokardiografiya
- CISH – in situ xromogen gibridlanish
- FISH – in situ fluoressent gibridizatsiya
- # – Preparatni qo‘llash bo‘yicha instruksiyada ko‘rsatilgan qo‘llash uchun ko‘rsatmalar va qarshi ko‘rsatmalar, foydalanish usullari va dozalariga muvofiq ishlatilmaydigan preparat (off-label – off-leybl)

- Mazkur nozologiya bo‘yicha milliy protokolning foydalanuvchilari:

- Shifokor-onkologlar;
- Abdominal onkologlar;
- Shifokor- kattalar jarrohlari;
- Kimyo terapevtlar;
- Radioterapevtlar;
- Genetiklar;
- Umumiy amaliyot shifokorlari;
- Sog‘liqni saqlash tashkilotchilari;
- Shifokor-terapevtlar;
- OTM talabalari, magistrilar, ordinator va aspirantlar.

- Mazkur nozologiya bo‘yicha bemorlarning toifasi: (18 yoshdan) kattalar.

- Dalillarga asoslangan tibbiyotning, dalillari darajasi shkalasi:

Dalillarning ishonchlilik darajalarini (DID) baholash o‘lchovi diagnostika usullari (diagnostik aralashuvlar) uchun

DID	Batavsil
1	Malumot nazorati ostida o‘tkaziladigan tadqiqotlarning tizimli tekshiruvi yoki randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlarning metatahlil yordamidagi tizimli tekshiruvi

2	Ma'lumotlarning usuli yoki alohida tasodifiy klinik tadqiqotlar va har qanday dizayndagi alohida tadqiqotlar muntazam ravishda ko'rib chiqish, metatahlil yordamida tasodifiy klinik tadqiqotlar bundan mustasno
3	Ma'lumotnoma usuli bilan ketma-ket nazoratsiz tadqiqotlar yoki o'rganilayotgan usuldan mustaqil bo'lmagan tadqiqotlar yoki tasodifiy bo'lmagan qiyosiy tadqiqotlar, shu jumladan kogort tadqiqotlar
4	Taqqoslab bo'lmaydigan tadqiqotlar, klinik holatning tavsifi.
5	Faqat harakat mexanizmi yoki ekspertlarning fikrini asoslash mavjud.

Profilaktika, davolash va reabilitatsiya (profilaktika, davolanish, reabilitatsiya aralashuvlari) uchun dalillarga ishonch darajasini baholash o'lchovi

DID	Batavsil
1	Metatahlil yordamida tasodifiy klinik tadqiqotlarni muntazam ko'rib chiqish.
2	Alohida tasodifiy klinik tadqiqotlar va har qanday dizayndagi tadqiqotlarning tizimli sharhlari, metatahlil yordamida tasodifiy klinik tadqiqotlar bundan mustasno.
3	Tasodifiy bo'lmagan qiyosiy tadqiqotlar,
4	Taqqoslab bo'lmaydigan tadqiqotlar, klinik hodisa yoki
5	qator hodisalar tavsifi, «hodisa-kontrol» tadqiqotlari.

Профилактика, таъхис, даволаш ва реабилитация усуллари бўйича тавсияларнинг ишонтириш даражасини баҳолаш ўлчови (профилактика, даволаниш, реабилитация аралашувлари)

DID	Batavsil
A	Kuchli tavsiya (ko'rib chiqilgan barcha samaradorlik mezonlar (natijalar) muhim ahamiyatga ega, barcha tadqiqotlar yuqori yoki qoniqarli uslubiy sifatga ega, ularning qiziqish natijalari bo'yicha xulosalari kelishilgan).
B	Shartli tavsiya (ko'rib chiqilgan barcha samaradorlik choralari (natijalari) muhim emas, hamma tadqiqotlar ham yuqori yoki qoniqarli uslubiy sifatga ega emas va / yoki qiziqish natijalari bo'yicha ularning xulosalari kelishilmagan).
C	Zaif tavsiya (tegishli sifat dalillarining yo'qligi, ko'rib chiqilgan barcha samaradorlik mezonlari (natijalari) muhim emas, barcha tadqiqotlar past uslubiy sifatga ega va qiziqish natijalari bo'yicha ularning xulosalari kelishilmagan).

2. Asosiy qism.

- Kirish

Me'da saratoni (MS) – me'daning havfli o'smasi bo'lib, me'da devorining ichki shilliq qavati hujayralaridan hosil bo'lgan havfli o'smadir [1].

- **Nozologiyaning umumiy tavsifi** (foydalanilgan manbaga havola: https://gco.iarc.fr/today/en/dataviz/pie?mode=population&group_populations=0&cancers=7&types=1)

Xalqaro Saratonni o'rganish Agentligi – GLOBOCAN ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilda me'da saratonining jami 968 784 yangi holati aniqlangan va ushbu saratondan 660 175 kishi vafot etgan.

MS -polietiologik kasallik bo'lib; asosiy omillar qatoriga quyidagilar kiradi:

1) irsiyat. Quyidagi irsiy saraton turlari va MS rivojlanish xavfini orttiruvchi irsiy sindromlar ajratiladi:

a. irsiy diffuz MS. Auosom-dominant sindrom bo'lib, unda Ye-kargerin molekulasi tufayli hujayraning adgeziyasini ta'minlovchi CDH1 genida mutatsiyalar mavjud bo'ladi. Bu uzuksimon- hujayrali saratonning rivojlanishiga olib keladi va u 30-50% hollarda aniqlanadi. 80 yoshga kelib MS rivojlanish xavfi erkaklarda 67% va ayollarda 83% ga etadi. MS aniqlanishining o'rtacha yoshi 37 yoshni tashkil qiladi;

b. Linch (Lynch) sindromi (irsiy polipoz bo'lmagan yo'g'on ichak saratoni, NNRTK). MS rivojlanish xavfi 1 dan 13 % gacha;

s. yuvenil polipoz sindromi. MS rivojlanish xavfi 21% ga etadi;

d. Peyts–Yegers (Peutz–Jeghers) sindromi. MS rivojlanish xavfi 29% ga etadi;

e. oilaviy adenomatoz polipoz. Unda MS rivojlanish xavfi 1-2% ni tashkil qiladi;

2) *Helicobacter pylori* bilan infitsirlanish;

3) zararli odatlar – chekish;

4) alimantar – spirtli ichimliklar, tuzlangan, qovurilgan, konservalangan, marinatsiyalangan, ziravorli ovqatlarni suiiste'mol qilish; mikitoksinlar bilan zararlangan mahsulotlarni iste'mol qilish; sikroelementlari va vitaminlarning yetishmasligi.

Fon kasalliklari: surunkali atrofik giperplastik gastrit, adenomatoz polioplalar, zararli anemiya, me'da rezeksiyasidan keyingi holatlar, Menetriye kasalligi (gipertrofik gastropatiya, giperplastik gigant-burmali gastrit) [1-6]

Har yili respublikada me'da saratonining 2000 dan ortiq yangi holatlari qayd etiladi. G'arbiy Yevropada me'da saratoni bilan og'rigan bemorlarning 5 yillik yashovchanlik darajasi 18%, AQSHda - 21%ni tashkil qiladi.

RIOvaRIATM statistik ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilda O'zbekiston Respublikasida me'da saratoni uchrashi bo'yicha saraton kasalliklari ichida 2-o'rinni egallaydi va 100 ming aholiga nisbatan 5,6 tani tashkil etadi. 2022 yilda birinchi marta MS bilan kasallangan jami 2019 bemor aniqlandi. Ulardan 10,9% holatlar profilaktik tekshiruvlar paytida faol ravishda aniqlangan. MS morfologik tasdiqlangan tashxisi

bo'lgan bemorlarning ulushi 93,9% ni tashkil qiladi. Kasallikning I bosqichida 1,4%, II bosqichida 31,1%, III bosqichida 38,9% va IV bosqichida 26,9% holatlar aniqlangan. bemorlarning 1,7 foizida kasallikning bosqichini aniqlab bo'lmadi. 2023 yil boshida dispanser nazorati ostida me'da saratoni bilan kasallangan 4888 bemor bor edi va kasalmandlik 100 ming aholiga 13,6 ni tashkil etdi (erkaklar orasida 1 o'rin). Respublikada MS bilan 5 yillik yashovchanlik darajasi 31,2% va 1 yillik o'lim darajasi 28,4% ni tashkil qiladi. O'zbekiston Respublikasida 2022 yilda 1409 bemor me'da saratonidan vafot etdi, bu 100 ming aholiga 3,9 o'limni tashkil etadi va ko'krak bezi saratonidan keyin 2-o'rinni egallaydi. Saratondan o'lim bo'yicha MS erkak aholi orasida 1-o'rinni (13,8%) va ayol aholi orasida esa 3-o'rinni (7,1%) egallaydi.

- Klinik tasnifi

Keyingi yillardagi deskriptiv va analitik epidemiologik tadqiqotlar me'da saratoni etiologiyasida turmush tarzi omillarining o'rni borligini ko'rsatmoqda. Saraton xavfining isbotlangan omili *Helicobacter pylori* hisoblanadi.

1. HKT-0 kodlari bilan epiteliya o'smalari va preinvaziv jarayonlarning xalqaro gistologik tasnifi (JSST, 2019) [5]:

Havfsiz epiteliyal o'smalar va preinvaziv jarayonlar

8148/0 Past malignizatsiyalanish havfi bo'lgan bezli intraepitelial o'sma

8148/2 Yuqori malignizatsiyalanish havfi bo'lgan bezli intraepitelial o'sma

8213/0 Past malignizatsiyalanish havfi bo'lgan tishsimon displaziya *

8213/2 Yuqori malignizatsiyalanish havfi bo'lgan tishsimon displaziya *

Ichak tipidagi displaziya

Chuqurcha tipidagi displaziya (me'da tipidagi)

Me'da kriptalari displaziyasi

8144/0 Past malignizatsiyalanish havfi bo'lgan ichak tipidagi adenoma*

8144/2 Yuqori malignizatsiyalanish havfi bo'lgan ichak tipidagi adenoma *

Ichak tipidagi sporadik me'da adenomasi

Ichak tipidagi sindrom me'da adenomasi

8210/0 Past malignizatsiyalanish havfi bo'lgan adenomatoz polip*

8210/2 Yuqori malignizatsiyalanish havfi bo'lgan adenomatoz polip *

Havfli epiteliyal o'smalar

8140/3 Adenokarsinoma QT (qo'shimcha tushuntirishsiz (rus. - BDU))

8211/3 Tubulyar adenokarsinoma
8214/3 Pariyetal hujayrali saraton
8255/3 Aralash tuzilishdagi adenokarsinoma
8260/3 Papillyar adenokarsinoma QT
8265/3 Mikropapillyar saraton QT
8430/3 Mukoepidermoid saraton
8480/3 Shilliqli (mutsinoz) adenokarsinoma
8490/3 Uzuksimon hujayrali saraton
8490/3 Diffuz saraton (poorly cohesive carcinoma)
8512/3 limfoid stromali medullyar saraton
8576/3 Gepatoid adenokarsinoma
Panet hujayrali saraton
8070/3 Yassi hujayrali saraton QT
8560/3 Bezli-yassi hujayrali saraton
8020/3 Differensiallashmagan saraton QT
8014/3 Rabdoid fenomenli yirik hujayrali saraton
8022/3 Pleomorf saraton
8033/3 Sarkomatoid saraton
8035/3 Osteoklastsimon gigant hujayrali saraton
8976/1 Gastroblastoma*
8240/3 Neyroendokrin o'sma QT
8240/3 Neyroendokrin o'sma G1
8249/3 Neyroendokrin o'sma G2
8249/3 Neyroendokrin o'sma G3
8153/3 Gastrinoma QT
8156/3 Somatostatinoma QT
8241/3 Enterokromaffin hujayrali karsinoid
8242/3 ECL-hujayrali karsinoid
8246/3 Neyroendokrin saraton QT
8013/3 Yirik hujayrali neyroendokrin saraton
8041/3 Mayda hujayrali neyroendokrin saraton

* JSSTning ushbu tasnifi (2019) ga birinchi bor kiritilayotgan nozologik birliklar [8]

1. Invaziv MSni Lauren (P. Laurén) (1965) bo'yicha gistologik tasnifi [5]:

1. Ichak tipi: adenokarsinoma turli kalibrdagi papillyar va/yoki bezli tuzilmalar, shuningdek solid sohalari bilan ifodalanadi, shilimshiq hosil qilishning ifodalanganligi muhim emas (prototip – ichak tipidagi adenokarsinomasi).

2. Diffuz tip: adenokarsinoma tuzilishning bezli, papillyar yoki solid qismlarini shakllantirmasdan, hujayra ichidagi va hujayradan tashqari mutsin tarkibini o'zgaruvchanligi bilan diffuz o'sadigan hujayralar bilan ifodalanadi. O'sma hujayralari ham uzuksimon, ham uzuksimon bo'lmagan morfologiyaga ega bo'lishi mumkin (prototip - uzuksimon hujayrali saraton).

3. Aralash tip: adenokarsinoma ichak va diffuz turdagi sohalarning turli kombinatsiyalari bilan ifodalanadi.

4. Tasniflanmaydigan tip: Ushbu turga yuqorida tavsiflangan turlarning birortasining morfologik xususiyatlariga ega bo'lmagan me'da saratonining barcha turlari kiradi [3].

Me'da saratonining boshqa morfologik tasnifi (Goseki, Ming va boshq.) ham qo'llanilsa bo'ladi, ammo, gistologik hulosaning majburiy elementi hisoblanmaydi.

2. MSning makroskopik tasnifi [5]:

1. «Erta» MS (T1N0–3M0):

- 0 tip – yuzaki yassi o'smalar:
- 0-I tip – ko'tarilish (o'smaning balandligi shilliq qavat qalinligidan 2 va undan ko'p ko'tarilib turadi);
- 0-II tip – yuzaki:
 - 0-IIa – ko'tarilgan tip;
 - 0-IIb – yassi tip;
 - 0-IIc – chuqurlashgan.
- 0-III tip – yaralangan (shilliq qavatda yarali defekt).

2. Tarqalgan me'da saratoni:

- I tip – zambarag'simon yoki polipsimon;
- II tip – yarali, aniq chizilgan chegarali (likopcha shaklida);
- III tip – yarali-infiltrativ;

- IV tip – diffuz-infiltrativ (linitis plastica);
- V tip – tasniflanmaydigan o‘smalar.

3. MSni TNM 8 nashr tizimi bo‘yicha tasniflanishi [5]:

MSni bosqichlash klinik tekshiruv natijalariga asoslanadi (cTNM) [3]; uzoq metastazlar bo‘lmasa, jarrohlik materialini gistologik tekshirish natijalari asosida yakuniy bosqich operatsiyadan keyin belgilanadi (rTNM). Unda quyidagi parametrlarni baholash kerak:

1) me‘da devoriga o‘sma invaziyasining chuqurligi va uning chegaralaridan tashqarida chiqishi ("T"toifasi);

2) olib tashlangan limfa tugunlari soni va metastazlar bilan zararlangan limfa tugunlari soni ("N" toifasi); "N" toifasini aniqlash uchun kamida 16 ta olib tashlangan limfa tugunlarini tekshirish kerak.

O‘sma kombinatsiyalangan yoki kompleks davolash paytida yoki undan keyin darhol baholangan hollarda, cTNM yoki pTNM toifalarining qiymatlari "u"prefiksi bilan belgilanadi. ycTNM yoki ypTNM qiymatlari tekshirish vaqtida o‘smaning tarqalishini tavsiflaydi.

Qizilo‘ngach-me‘da birikmasi sohasi o‘sma jarayonida ishtirok etganda, markazi qizilo‘ngach-me‘da birikmasining anatomik chegarasidan 2-5 sm pastda joylashganda (Zivert bo‘yicha III tip), adenokarsinomani MS deb tasniflanadi va davolanadi. Agar qizilo‘ngach-me‘da birikmasi sohasini o‘z ichiga olgan adenokarsinomaning markazi tishsimon chizig‘i sohasida joylashgan bo‘lsa, ya‘ni. qizilo‘ngach-me‘da birikmasining anatomik chegarasidan 2 sm pastda va 1 sm yuqorida bo‘lsa (Zivert bo‘yicha II turi) yoki qizilo‘ngachning pastki uchdan bir qismida qizilo‘ngach-me‘da birikmasining anatomik chegarasidan 1-5 sm yuqorida bo‘lsa (Zivert bo‘yicha I turi), jarayon qizilo‘ngach saratoni deb tasniflanadi va davolanadi.

Zivert bo‘yicha I va II tip kardioezofagial soha adenokarsinomasining lokal shakllarini davolash taktikasi qizilo‘ngach saratoni davolash taktikasiga o‘xshash, tarqalgan va metastatik shakllarini davolash esa tarqalgan MSni davolashga o‘xshaydi [3].

TNM tizimi bo‘yicha MS tasnifi va saraton bo‘yicha Amerika qo‘shma qo‘mitasining (American Joint Committee on Cancer, AJCC) 8-nashriga ko‘ra bosqichlar bo‘yicha guruhlash 2 va 3 - jadvallarda keltirilgan.

1-jadval. AJCC TNM-tasnifi (8-nashr, 2017) [5]:

TNM tasnifi

<i>T – birlamchi o‘smaning xususiyatlari, ya’ni me’da devoriga o‘sma invaziyasining maksimal chuqurligi</i>	
Tx	Birlamchi o‘smanni baholash imkonsiz
T0	Birlamchi o‘sma borligi haqida ma’lumot yo‘q
Tis	in situ karsinoma (shilliq qavat ichidagi o‘sma, hususiy plastinkaga invaziyasiz) / og‘ir displaziya
T1	O‘sma shilliq qavatning hususiy plastinkasini yoki mushak plastinkasini, shilliq osti qavatni egallaydi
T1a	O‘sma shilliq qavatning hususiy plastinkasini yoki mushak plastinkasini egallaydi
T1b	O‘sma shilliq osti qavatni egallaydi
T2	O‘sma mushak qavatni egallaydi
T3	O‘sma visseral qorin parda yoki qo‘shni tuzilmalarga o‘sib o‘tmagan holda subseroz qavatni zararlaydi; bu guruhning o‘smalariga, bu tuzilmalarni qoplaydigan visseral qorin pardani zararlamagan holda me’da-chambar ichak va me’da-jigar boylamlariga, katta va kichik charviga invaziyasi bo‘lgan o‘smalar ham kiradi; me’da boylamlarini va charvini qoplaydigan qorin pardaning perforatsiyasi mavjud bo‘lganda. o‘sma T4 deb tasniflanadi
T4	O‘sma seroz pardaga (visseral qorin pardaga) yoki qo‘shni tuzilmalarga tarqaladi (o‘smaning o‘n ikki barmoqli ichakka yoki qizilo‘ngachga intramural tarqalishi qo‘shni tuzilmalarga tarqalishi hisoblanmaydi, lekin istalgan ushbu sohalarga maksimal chuqurlik holatida "T" ni tavsiflash uchun qo‘llaniladi)
T4a	O‘sma seroz qavatga (visseral qorin pardaga) tarqalgan
T4b	O‘sma taloq, ko‘ndalang chamber ichak, jigar, diafragma, me’da osti bezi, qorin old devori, buyrak usti bezi, buyrak, ingichka ichak, qorin parda orti soha kabi qo‘shni tuzilmalarga tarqaladi
<i>N – regional limfa tugunlari holatining xususiyatlari (pN ni aniq baholash uchun kamida 16 ta limfa tugunlarini olib tashlash va tekshirish kerak)</i>	
Nx	Regional limfa tugunlarini baholash imkonsiz
N0	Regional limfa tugunlarida metastazlar mavjud emas
N1	1-2 regional limfa tugunlarining shikastlanishi
N2	3-6 regional limfa tugunlarining shikastlanishi
N3	7 yoki undan ortiq regional limfa tugunlarining shikastlanishi:

	<ul style="list-style-type: none"> N3a: 7-15 regional limfa tugunlarining shikastlanishi N3b: 16 yoki undan ortiq regional limfa tugunlarining shikastlanishi
<i>M – uzoq metastazlar tavsifi</i>	
Mx	Uzoq metastazlarning mavjudligini aniqlab бўлмайди
M0	Uzoq metastazlar mavjud emas
M1	Uzoq metastazlar mavjud ёки қорин парда ювиндисиди /биоптатларда ўсма хужайралари mavjud

4. Me'da saratonining bosqichlar bo'yicha tasniflanishi:

2-jadval. Me'da saratoni: bosqichlar bo'yicha (prognosti guruhlar bo'yicha) guruhlash [5]:

MSni TNM, 8-nashr, 2017 y. bo'yicha tasniflash											
klirik				patomorfologik				neoad'yuvant terapiyadan so'ng			
Bosqich	cT	cN	cM	Bosqich	pT	pN	M	Bosqich	ypT	ypN	M
0	Tis	N0	M0	0	Tis	N0	M0	–	–	–	–
I	T1	N0	M0	IA	T1	N0	M0	I	T1	N0	M0
	T2	N0	M0		IB	T1	N1		M0	T2	N0
				T2		N0	M0		T1	N1	M0
IIA	T1	N1, N2, N3	M0	IIA	T1	N2	M0	II	T3	N0	M0
	T2	N1, N2, N3	M0		T2	N1	M0		T2	N1	M0
					T3	N0	M0		T1	N2	M0
IIB	T3	N0	M0	IIB	T1	N3a	M0		T4a	N0	M0
	T4a	N0	M0		T2	N2	M0		T3	N1	M0
					T3	N1	M0		T2	N2	M0
					T4a	N0	M0	T1	N3	M0	
III	T3	N1,N2 yoki N3	M0	IIIA	T2	N3a	M0	III	T4a	N1	M0
	T4a	N1,N2 yoki N3	M0		T3	N2	M0		T3	N2	M0
					T4a	N1	M0		T2	N3	M0

					T4b	yoki N2 N0					
				IIIB	T1	N3b	M0		T4b	N0	M0
					T2	N3b			T4b	N1	
					T3	N3a	M0		T4a	N2	M0
					T4a	N3a					
					T4b	N1 yoki N2	M0		T3	N3	M0
				IIIC	T3	N3b	M0		T4b	N2	M0
					T4a	N3b			T4b	N3	
					T4b	N3a yoki N3b	M0		T4a	N3	M0
IVA	T4b	Har qanday	M0	IV	Har qanday	Har qanday	M1	IV	Har qanday	Har qanday	M1
IVB	Har qanday ay T	Har qanday	M1		T	N			T	N	

5. Gastrointestinal stromal o'sma [5] TNM tasnifi:

T – Birlamchi o'sma;

TX – Birlamchi o'smani baholash imkonsiz;

TO – Birlamchi o'sma haqida ma'lumot yo'q;

T1 – 2 smdan katta bo'lmagan o'sma;

T2 – eng katta o'lchami 2 smdan katta, ammo 5 smdan katta bo'lmagan o'sma;

T3 – eng katta o'lchami 5 smdan katta, ammo 10 smdan katta bo'lmagan o'sma;

T4 – eng katta o'lchami 10 smdan katta o'sma;

N – Regional limfa tugunlari;

NX - Regional limfa tugunlarini baholash mumkin emas;

N0 - Regional limfa tugunlarining metastazlari yo'q;

N1 - 1-2 regional limfa tugunlarida metastazlar;

N2 - 3-6 regional limfa tugunlarida metastazlar;

N3 - 7 yoki undan ortiq regional limfa tugunlarida metastazlar;

N3a - 7-15 regional limfa tugunlarida metastazlar;

N3b – 16 yoki undan ortiq regional limfa tugunlarida metastazlar;

* GISTda regional limfa tugunlar kamdan-kam zararlanadi, shuning uchun, limfa tugunlarining holatini klinik yoki morfologik jihatdan baholash mumkin bo‘lmagan holatlarda, Nx yoki pNx o‘rniga N0 deb hisoblanadi.

M – Uzoq metastazlar;

M0 – Uzoq metastazlar yo‘q;

M1 – Uzoq metastazlar bor.

6. pTNM patogistologik tasnif:

pT, pN, pM kategoriyalarni aniqlash uchun talablar, T, N, M kategoriyalarni aniqlash talablariga javob beradi.

Eslatma: pN0 gistologik tekshiruv odatda 15 yoki undan ortiq regional limfa tugunlarini o‘z ichiga oladi.

G – gistopatologik differensirovka;

GX – Differensiatsiya darajasini aniqlab bo‘lmaydi;

G1 – yuqori differensiallashgan;

G2 – o‘rta differensiallashgan;

G3 - past differensiallashgan;

G4 – differensiallashmagan saraton.

7. Prognostik omillar

3-jadval. Me‘da saratonini prognostik omillari:

<i>Prognostik omillar</i>	<i>O‘sma bilan bog‘liq</i>	<i>Organizm bilan bog‘liq</i>	<i>Atrof muhit bilan bog‘liq</i>
Asosiy	N kategoriya M kategoriya HER2 status		Qoldiq kasallik: R0, R1 or R2
Qo‘shimcha	O‘sma tarafidan: kardial yoki distal me‘da Gistologi tip Tomirlarga	Yoshi	Rezeksiya darajasi

	infiltratsiya		
Yangi va perspektiv	Molekular profil	Irq: Osiyolik yoki osiyolik emas	

3. Tekshiruv usullari, uslublari, tibbiy muolajalar yondashuvlari va tashxislash jarayonlari.

Tashhislash mezonlari [1]:

- Shikoyatlari va anamnez:

Me'da saratonining patognomonik belgilari aniqlanmagan.

Bemorning shikoyatlari turli xil me'da kasalliklarining (surunkali gastrit, me'da yarasi va boshqalar.) belgilari bilan bir hil bo'lishi mumkin.

- Epigastral sohada og'riq;
- Disfagiya;
- Ko'ngil aynish;
- Qayt qilish (shu jumladan «kofe quyqasi» shaklida);
- Ishtaha yo'qolishi;
- Vazn yo'qotish.

- Fizikal tekshirishlar

- Me'da saratonining kechki bosqichlarida ko'pincha og'ir adinamiya hisobiga bemor majburiy holatda bo'ladi.
- Yuzni tekshirganda, ko'zning porlashi va tirikligi pasayishi mumkin.
- Terining rangparligi me'da-ichakdan qon ketishni bildirishi mumkin. Me'da saratonining kechki bosqichlari bo'lgan bemorlarda teri mumsimon yoki tuproqsimon rangli holatga keladi.
- Ba'zi hollarda, qorin bo'shlig'ining simpatik tugunlariga metastazlarning rivojlanishi natijasida terining yaqqol diffuz giperpigmentatsiyasi ham kuzatilishi mumkin.
- Me'da saratonining kechki bosqichlarida terining qurishi va uning turgorining pasayishi ham qayd etiladi.
- Kaxeziya darajasiga yetgan aniq vazn yo'qotish distal me'da saratonida kuzatiladi.

Bunday hollarda bemorlarda oqsilsiz shish paydo bo'ladi.

- Keyingi bosqichlarda, chap to'sh-o'mrov-so'rg'ichsimon mushak oyoqlari orasidagi o'mrov usti sohasida, qo'shni teriga yopishmagan notekis yuzasi bo'lgan zich limfa tugunini aniqlash mumkin (Virxov metastazi).
- Og'iz bo'shlig'ini tekshirganda, me'da saratoni bilan og'rigan bemorlarda og'izdan ko'lansa hid kelishi mumkin – bu me'da havfli o'smasi parchalanishining belgisi.
- Epigastral sohada qorin devorining bo'rtib chiqishi me'da saratonining o'tib ketgan shakllarida kuzatiladi. O'tkir vazn yo'qotishda, ba'zi hollarda me'da konturlarini, uning kichik va katta egriligini vizual ravishda aniqlash mumkin.
- Pilorusning o'sma stenozi rivojlanida ba'zi bemorlarda qorin old devorini cheklangan joylarda ko'tarilib, epigastral soha qorin devorining yengil silkitgandan keyin aniqroq ko'rinadigan davriy to'lqinli harakatlar aniqlanadi.
- Qorin old devorini palpatsiya qilishda me'da o'smalari asosan me'daning distal qismlarida (antrum, pilorik) joylashganda aniq palpatsiya qilinadi va diametri bir necha santimetrgacha yetishi mumkin.
- Perkussiya yordamida me'daning pastki chegarasining holatini aniqlab olish mumkin va Traube makonidagi o'zgarishlarni aniqlanadi (me'daning subkardial qismi saratonida).

Laborator tekshirishlar [20]:

Sitologik tekshirish (atipik hujayralar hajmining gigant darajagacha o'sishi, hujayra ichidagi elementlarning shakli va sonining o'zgarishi, yadro hajmining kattalashishi, uning konturlari, yadro va boshqa hujayra elementlarining yetukligining turli darajasi, yadrochalar soni va shaklining o'zgarishi);

Gistologik tekshirish: (sitoplazmasi aniq ifodalangan katta poligonal yoki boshqoq shaklidagi hujayralar, mitozlar mavjud bo'lgan aniq yadrochali yumaloq yadrolar, hujayralar keratin hosil qilib yoki qilmay yacheykalar va tortishmalar shaklida joylashadi, qon tomirlarida o'sma emboli mavjudligi, limfotsitar-plazmotsitar infiltratsiyaning ifodalanganligi, o'sma hujayralarining mitotik faolligi):

- HER-2
- Cytokeratin 7
- Cytokeratin 8/18
- CD45

Bemorni kompleks genom profillash, klinik kechishiga ko'ra, yuqori progressiyalanuvchi agressiv o'smalarda, ananaviy o'smaga qarshi davodan samara bo'lmagan o'smalarda qo'llaniladi.

Instrumental tekshiruvlar [ID-A]:

- Fibroezofagogastroduodenoskopiya (shilliq qavatdagi nuqsonni ko‘rish, uning hajmi va tabiatini aniqlash, gistologik tekshirish uchun to‘qimalarning bir qismini olish imkonini beradi);
- Qizilo‘ngachni kontrastli rentgen tekshiruvi, me‘dani kontrastli rentgen tekshiruvi (ikki marotaba kontrastlash) (me‘da havfli o‘smalarini tarqalishi va davomiyligini aniqlashga, shuningdek jarrohlik aralashuv taktikasini belgilashga imkon beradi);
- Kompleks ultratovush diagnostikasi (jigar, o‘t qopi, me‘da osti bezi, taloq, buyraklar, o‘mrov usti l/tugunlar) (qorin bo‘shlig‘i va qorin parda orti sohaning kattalashgan l/ tugunlarining exogen mavjudligi, qorin bo‘shlig‘ida metastazlarning mavjudligi, shuningdek, me‘da havfli o‘smalarining qo‘shni tuzilmalarga o‘sib o‘tishi);
- Qorin bo‘shlig‘i va qorin parda orti sohaning kompyuter tomografiyasi (qorin bo‘shlig‘i va qorin parda orti sohaning kattalashgan l/tugunlari mavjudligini aniqroq ko‘rish, qorin bo‘shlig‘ida metastazlar mavjudligi, shuningdek, me‘da havfli o‘smalarining qo‘shni tuzilmalarga o‘sishi).
- Morfologik tekshirish –me‘da saratonini boshqa kasalliklar bilan differensial tashxislashning asosiy usulidir. Biopsiyada havfli hujayralarni aniqlash qizilo‘ngach saratonini aniq ko‘rsatadi, garchi bitta olingan materialda o‘sma belgilarining yo‘qligi bu kasallikni istisno qilmaydi. Faqat dinamik kuzatuv davomida takroriy manfiy natijalar kuzatilganda patologik jarayonni havfsiz deb hisoblash mumkin.

- Muolaja va aralashuvga tayyorlashda asosiy tekshirish usullari:

1. QUT leykoformula va trombositlar miqdorini hisoblash bilan;
2. Qon biokimyoviy tahlyoki (natriy, kaliy, kalsiy, glyukoza, mochevina, kreatinin, siydik kislotasi, umumiy oqsil, albumin, umumiy bilirubin, bevosita bilirubin, LDG, AST, ALT, SRB, ishqoriy fosfotaza);
3. AVO tizimi bo‘yicha qon tuguhini aniqlash;
4. Rezus-faktorni aniqlash;
5. Peshob umumiy tahlili;
6. Koagulogramma (ACHTV, PV, MNO, PTI, fibrinogen);
7. Koptokcha filtratsiyasi tezligini aniqlash;
8. IFA yoki IXL usulida virusli gepatit B va C markerlarini aniqlash
9. IFA usulida OIV-infeksiyani aniqlash (HIVAg/anti-HIV);

- 10.V va C virusli hepatitlari uchun PZR (sifatli)
- 11.Zahmga serologik reaksiyalar majmuasi;
- 12.Fibroezoqogastroduodenoskopiya biopsiya bilan;
13. Qizilo'ngachni kontrastli rentgen tekshiruvi (ikki tomonlama kontrast);
14. Kontrastli me'dani rentgenologik tekshirish (ikki tomonlama kontrast);
- 15.Kompleks ultratovush diagnostikasi (jigar, o't pufagi, me'da osti bezi, taloq, buyraklar, o'mrov usti limfa tugunlari);
- 16.Qorin bo'shlig'i va qorin parda orti sohasi kompyuter tomografiyasi;
- 17.Bioptatni sitologik tekshirish (limfa tuguni, hosilani)*;
- 18.Bioptatni gistologik tekshirish (limfa tuguni, hosilani)*
- 19.Bioptatni immunogistokimyoviy tekshirish (limfa tuguni, hosilani)*
- 20.EKG;
- 21.ExoKG;
- 22.Butun tana PET/KTsi**;
23. Kontrastlash bilan MSKT ***;

- Muolaja va aralashuvga tayyorlashda qo'shimcha tekshirish usullari:

1. PZR usulida Ebshteyn-Barr virusi, 1-2 tip herpes, sitomegalovirus, toksoplazmoz;
2. V va C hepatit viruslariga PZR (miqdoriy);
3. SOVID-19 gi PZR;
4. Qonni kislotasi ishqoriy holati (KIH) va gazlarga aniqlash;
5. Bevosita va bilvosita Kumbs reaksiyasi;
6. Standart sitogeneti tekshirish;
7. FISH usulida va molekular-genetik tekshirish;
8. Ferritin, folatlar, zardob temiri, Vitamin V12ni aniqlash;
9. ProBNP
- 10.Prokalsitonin
- 11.Antitrombin III, D-dimer
- 12.Fertil yoshidagi ayollarda – homiladorlikka test, XGCHni aniqlash;
- 13.Miyelogramma;
- 14.Periferik qon IFTsi;
- 15.Inson T-limfotrop virusi I/II-IgG ga antitana;

16. Standart –sitogenetik tekshirish;
17. FISH va PZR usulida molekular-genetik tekshirish;
18. Burun yondosh bo‘liqlari rentgenografiyasi;
19. Ortopantomogramma;
20. Ko‘krak segmentini kompyuter tomografiyasi;
21. Bosh, bo‘yin va qorin bo‘shlig‘ini kontrastli KTsi;
22. Bronxoskopiya;
23. Kolonoskopiya;
24. Tomirlar (vena va/yoki arteriyalar) UTDGsi;
25. Spirografiya;
26. Bosh miya MRTsi;
27. Plevral bo‘shliq, periferik limfa tugunlar, kichik chanoq, qovuq UTTsi;
28. Xolter – monitorlash bilan EKG

* Agar avval o‘tkazilmagan bo‘lsa.

** Kasallikning boshlanishida va qayta bosqichlash paytida bajarish kerak.


*** PET/KT o‘tkazish mumkin bo‘lmagan hollarda.

- Mutaxassislarning konsultativ ko‘ruvi uchun ko‘rsatmalar:

- **Kardilog ko‘rigi** (50 yosh va undan katta bemorlarda, shuningdek, YUQT da patologiyasi bo‘lgan 50 yoshdan kichik bemorlar);
- **Ginekolog ko‘rigi** (kichik chanoq a‘zolarida hajmli hosila belgilari bo‘lgan ayollarda, oilaviy, birgalikda keluvchi saraton turlarini istisno qilish maqsadida);
- Me‘da saratonini davolash boshlanishidan oldin **akusher-ginekolog/reproduktologning maslahati** zarur, agar bemor kelajakda farzand ko‘rishni xohlasa, yordamchi reproduktiv texnologiyalarning mumkin bo‘lgan variantlarini muhokama qilish, shuningdek, tug‘ish yoshidagi bemorlarda o‘smaga qarshi dori terapiyasi davrida, yaqin kelajakda va undan keyin istalmagan homiladorlikning oldini olish uchun ishonchli kontratseptiv vositalardan foydalanish masalasida [5];
- **nevropatolog ko‘rigi** (qon tomir miya kasalliklarida, shu jumladan insult, miya shikastlanishi, epilepsiya, miasteniya, neyroinfeksion kasalliklar, shuningdek, ongni yo‘qotishning barcha holatlarida);
- **endokrinolog ko‘rigi** (endokrin a‘zolari tomonidan hamroh kasalliklari bo‘lgan taqdirda);


- **qon-tomir jarrohi ko‘rigi** (varikoz kasallik, tug‘ma/orttirilgan tomirlar patologiya mavjud bo‘lgan hollarda);
- **pulmonolog ko‘rigi** (o‘pka parenximasida qoldiq patologiyalar mavjud bo‘lganda, bakterial / virusli / noaniq genezli yallig‘lanish jarayonidan keyin).
- **hamroh patologiyalar mavjud bo‘lganda, boshqa mutaxassislar ko‘riklari:** ftiziatr (anamnezdagi sil kasalligi bo‘lsa), yuqumli kasalliklar bo‘yicha mutaxassis (surunkali gepatit bo‘lsa) va boshqalar.
- **nefrolog ko‘rigi** (buyrak patologiyasi, giperazotemiya mavjud bo‘lganda).

- **Diagnostik algoritm:**



1-rasm. Me'da patologiyasiga gumon qilingandagi diagnostik algoritm

*- UTT qon oqimi SDKsi, ED, exokontrastlash bilan



2-rasm. Me'da saratonini tarqalganligini aniqlashda (TNM bo'yicha) nur tekshirishlari algoritmi

*- UTT qon oqimi SDKsi, ED, exokontrastlash bilan

- Qiyosiy tashxis va qo‘shimcha tekshiruvlarni asoslash

4-jadval. Me‘da saratonini differensial tashhislash

Tashhis	Qiyosiy tashhis uchun asoslash	tekshirish	Tashhisni inkor qilish mezonlari
Yara kasalligi	Yaraning havfli tabiatini istisno qilish uchun nuqsonning chekkalaridan va yaraning tubidan bir nechta biopsiya olish zarur.	me‘da yara kasalligi aniqlangandan 8-12 hafta o‘tgach, FGDS va biopsiya qilish majburiydir.	
Me‘da poliplari	Poliplarning havfli tabiatini istisno qilish uchun biopsiya o‘tkazish zarur.	Poliplarning kattaligi kichik bo‘rtiqdan me‘da saratonini imitatsiyalovchi katta polipoid massalargacha o‘zgarishi mumkin.	Poliplar, odatda FGDS yoki rentgen tekshiruvi paytida tasodifiy topilma hisoblanadi.
Me‘da limfomasi	Ko‘pincha Helicobacter pylori infeksiyasi bilan bog‘liq bo‘ladi	Umumiy quvvatsizlik, tez charchash, epigastral sohada og‘riq, tez to‘yinganlik hissi va anoreksiya xarakterlidir.	Tiplashni verifikatsiya qilish uchun immunogistokimyoviy tekshiruv bilan chuqur biopsiya o‘tkazish zarur, gap ko‘pincha V-hujayrali limfoma haqida ketmoqda.
Me‘da sarkomasi	Ko‘pincha me‘daning old yoki orqa devorini egallagan leyomiosarkoma bilan ifodalanadi.	Tashhisni verifikatsiya va tiplash uchun biopsiya talab qilinadi	Sekin o‘sish, yaralanish va qon ketish bilan tavsiflanadi; limfa tugunlarining shikastlanishi xarakterli emas.

4. Ambulatoriya darajasida davolash taktikasi.

1) Nomedikamentoz davo [16]:

- №1 stolga amal qilish, me'da saratoni buyuymorlari uchun bir umrdir.
- Bandaj taqish, fizik zo'riqishni cheklash – 6 oy davomida;
- Sog'lom turmush tarziga, to'g'ri ovqatlanish, uyqu va dam olish rejimiga rioya qilish.

2) Medikamentoz davo:

O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tmagan dori vositalarining klinik bayonnomaga kiritilishi bepul tibbiy yordamning kafolatlangan hajmi doirasida va majburiy ijtimoiy tibbiy sug'urta tizimida xarajatlarni qoplash uchun asos bo'lmaydi.

Kimyo terapiya – bu maxsus preparatlar, sitostatiklar yordamida saraton hujayralarini yo'q qilish yoki o'sishini sekinlashtirishga qaratilgan havfli saraton o'smalarini medikamentoz davolashdir. Kimyoterapiya bilan saratonni davolash individual ravishda tanlangan ma'lum bir sxema bo'yicha muntazam ravishda amalga oshiriladi. Odatda, o'sma kimyoterapiyasi sxemalari dorilarning ma'lum kombinatsiyalarini qabul qilishning bir necha kurslaridan iborat bo'lib, shikastlangan tana to'qimalarini tiklash uchun dozalar orasidagi pauzalar qilish bilan o'tkaziladi.

Asosiy dori-vositalarning ro'yxati (100% foydalanish ehtimoli bilan): yo'q.

5-jadval. Qo'shimcha dori-vositalarning ro'yxati (foydalanish ehtimoli 100% dan kam):

Farmakoterapevtik guruh	Dori-vositasining XPN	Qo'llash tartibi	Ishonchlilik darajasi
Ftorpirimidinlar	Kapetsitabind	2000-2500 mg/m ² , 1-14 kunlar, tabletka, ichishga	A
Ma'lumotlarni yuklab olish uchun (havolalar)	https://diseases.medelement.com/disease/%D1%80%D0%B0%D0%BA-%D0%B6%D0%B5%D0%BB%D1%83%D0%B4%D0%BA%D0%B0-%D0%BA%D0%BF-%D1%80%D0%BA-2022/17462		

3) Jarrohlik aralashuvi: yo'q.

4) Keyingi davolash: yo'q.

5) Protokolda keltirilgan tashxislash va davolash usullarining xavfsizligi hamda davolash samaradorligi indikatorlari: yo'q.

5. Tibbiy yordam ko‘rsatish turidan kelib chiqib shifoxonaga yotqizish uchun ko‘rsatmalari:

1) Rejali yordam ko‘rsatish shifoxonasiga yotqizish uchun ko‘rsatmalar:

- 24 soatlik yoki kunduzgi shifoxonada kuzatishni talab qiladigan murakkab intervension diagnostik tibbiy aralashuvlarni amalga oshirish zarurati;
- ixtisoslashgan o‘smaga qarshi davolash uchun ko‘rsatmalar (jarrohlik aralashuvi, NT, shu jumladan kontakt NT, DNT va boshqa NT turlari, dori terapiyasi va boshqalar), 24 soatlik yoki kunduzgi kasalxonada kuzatishni talab qiladi.

2) Shoshilinch yordam ko‘rsatish shifoxonasiga yotqizish uchun ko‘rsatmalar:

- ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamni shoshilinch va kechiktirib bo‘lmaydigan turlarini talab qiladigan saraton kasalligining asoratlari mavjudligi;
- onkologik kasalliklarni davolash (jarrohlik aralashuvi, NT, dori terapiyasi va boshqalar) ning asoratlari mavjudligi.

6. Statsionar darajasida davolash taktikasi [5, 9, 16,17].

1) Bemorni kuzatish kartasi, bemorni marshrutizatsiyasi: yo‘q.

2) Davolashdan maqsad:

- havfli o‘smanni a‘zo bilan to‘liq yoki qisman olib tashlash;
- o‘sma jarayonining to‘liq yoki qisman regressiyasi, stabilizatsiyasiga erishish.

Me‘da saratonini davolash usullarini tanlash ko‘plab omillarga, shu jumladan o‘smaning o‘lchamlariga, boshqa a‘zo, to‘qimalar va limfa tugunlarining jarayonga jalb qilinganligiga bog‘liq.

Bemorda hamroh kasalliklarning (og‘ir yurak, o‘pka, buyrak kasalliklari) mavjudligi muhim omil hisoblanadi.

Mutaxassislar bu omillarning barchasini hisobga olishadi. Bemor uchun individual reja ishlab chiqilgan bo‘lib, u jarrohlik davolash va / yoki kimyoterapiyadan iborat bo‘lishi mumkin.

Mutaxassislar bu omillarning barchasini hisobga olishadi. Bemor uchun jarrohlik davolash va/yoki kimyoterapiyadan iborat bo‘lgan individual reja ishlab chiqiladi.

Bosqichiga qarab davolash:

0, I A, I V, IIA, IIV bosqichlarda:

- Distal subtotal gastrektomiya.
- Proksimal subtotal gastrektomiya.
- Laparoskopik distal gastrektomiya (tegishli uskunnalar mavjud bo'lganda)
- Gastrektomiya (total).
- Endoskopik mukozektomiya (Tis yoki T1a) jarroh amaliyot bajarish texnikasini egallagan bo'lsa).
- D2 ko'lamidagi limfadiisseksiya standart jarrohlik amaliyotlarining majburiy komponenti hisoblanadi. Kasallikning T3, N1-2 bosqichlarida ad'yuvant poliximioterapiya kurslari taklif qilinadi.

IIIA, IIIV, IIIS bosqichlarida:

- Gastrektomiya.
